

DAVLAT BAYROQLARI BILAN BOG'LIQ TERMINLARNING CHOG'ISHTIRMA
TADQIQI (BUYUK BRITANIYA VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLATLARINING BAYROQLARI MISOLIDA)

O'rolova Dildora Yaxshiboyevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Xorijiy til va adabiyoti

(tillar bo'yicha) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

uralovadildora@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14531799>

Annotatsiya. Bu maqolada inglizlar va o'zbek xalqining bayrog'larining tarixi va uning belgilar bilan bo'g'liq terminlar keltirilgan .

Kalit so'zlar: "Flag", "Union Jack", "Banner", "Stander", "Hrycg", "Flaesc", "Ensign", "Standard-bearer", "banner-bearer", "botroq".

COMPARATIVE STUDY OF TERMS RELATED TO STATE FLAGS
(ON THE EXAMPLE OF THE FLAGS OF THE UNITED KINGDOM AND THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN)

Abstract. This article presents the history of the flags of the British and the Uzbek people and the terminology associated with their symbols.

Key words: "Flag", "Union Jack", "Banner", "Stander", "Hrycg", "Flaesc", "Ensign", "Standard-bearer", "banner-bearer", "botroq".

ПЕРЕКРЕСТНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕРМИНОВ, СВЯЗАННЫХ С
НАЦИОНАЛЬНЫМИ ФЛАГАМИ (НА ПРИМЕРЕ ФЛАГОВ ВЕЛИКОБРИТАНИИ
И РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН)

Аннотация. В данной статье представлена история флагов британского и узбекского народов и термины, связанные с их символами.

Ключевые слова: «Флаг», «Юнион Джекс», «Знамя», «Штандерд», «Хрикг», «Флаеск», «Прапорщик», «Знаменосец», «Знаменосец», «ботрог».

Kirish. Bayroq - bir mamlakatni yoki tashkilotni namoyish qiluvchi rangli mato parchasi. Asosan, uzun cho'pning uchida bo'ladi. Har bir mamlakatning mustaqilligini bildirgan bayrog'i bor. Daniya bayrog'i hozirgi davlatlar bayroqlari ichida eng qadimgisidir

Tayoq, sim va boshqa narsaga mahkamlangan muayyan rang va o'lchamdagi mato. O'rta asrlarda turkiy xalqlar orasida u tug'a deb atalgan. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropa shaharlarida tabaqa, uyushma va korxona o'z bayrog'iga ega bo'lgan;

Bayroq soʻzi „botroq“¹ soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, botirmoq maʼnosida keladi. Qadimgi turklar tuproqqa botirilgan tirgovichlarning uchiga qabilalarinngi ramzi sifatida matolar yoki iplar osar edilar. Vaqt oʻtishi bilan bu „Tuproqqa botirilgan yogʻoch“ „toʻlqinlangan davlat ramzi“ga aylanadi.

Avval bayroqlar faqatgina xabarlashish, signal berish kabi maqsadlarda ishlatilgan. Mamlakatlar oʻz bayroqlariga ega boʻlishlari esa, Oʻrta asrlarda urushlarda ikki taraf bir-biridan farqlanmoq uchun bayroq ishlatilgan. Shunday qilib har bir mamlakatning oʻz bayrogʻi paydo boʻla boshlagan.

Buyuk Britaniya bayrogʻi (boshqa nomlari: Britaniya bayrogʻi, „Union Jack“) - zamonaviy davlatning, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligining (1922-yildan), shuningdek, poytaxti London boʻlgan bir qator tarixiy davlatlar, shu jumladan buyuk Britaniya oroli yerlarining davlat ramzlaridan biridir:

Britaniya bayrogʻi oʻzining mavjudligi davomida oʻzgartirilgan va unda turli xil tasvir variantlari mavjud boʻlgan. Zamonaviy Britaniya bayrogʻida koʻk toʻrtburchakli panelda oq va qizil qiya xochlarning oʻrtasiga oʻrnatilgan oq qirrali qizil tekis xoch tasvirlangan. Geraldik tafsifga koʻra, ikki xil nisbat rasman tasdiqlangan: dengizdagi kemalar 1: 2 ga teng boʻlgan bayroqni ishlatadi va quruqlikda ishlatiladigan bayroq odatda 3:5 uzunlikdagi kenglik oʻlchoviga ega.

Oʻzbekiston bayrogʻi uch rangli boʻlib, unda koʻk, oq va yashil ranglar mavjud. Bu ranglar milliy va madaniy qadriyatlarni ifoda etadi.

Koʻk rang - tinchlik va musaffo osmon ramzi hisoblanadi. Shu bilan birga, koʻk rang Oʻzbekiston xalqi uchun, Amir Temur saltanatidagi ramziy maʼnoga ega boʻlib, kuch, jasorat va mardlikni ifodalaydi.

Oq rang - poklik, halollik va maʼnaviyatni ifoda etadi. Bu rang barqarorlik, adolat va pok niyatlarning ramzi hisoblanadi. Oq rangning bayroqdagi mavjudligi, Oʻzbekistonning kelajagi uchun pok niyatlar va tinchlikka boʻlgan intilishni anglatadi.

Yashil rang - tabiat, hayot va yoshlik timsoli. Oʻzbekiston boy tabiiy resurslar va unumdor yerlar mamlakati boʻlib, qishloq xoʻjaligi ahamiyatiga ega. Yashil rang ana shu qadriyatlarni ifoda etadi, shuningdek, oʻsish va taraqqiyotni ramzi sifatida talqin qilinadi.²

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

“Ensign”³ soʻzi ingliz tilida asosan kema bayrogʻi yoki harbiy xizmatdagi unvon sifatida ishlatiladi. Bu soʻz haqida “Ensign” by Somerset Maugham asarida tasvirlab berilgan.

¹WWW:wikipediya

² WWW:wikipediya

³ [“Ensign” by W.Somerset Maugham](#)

Maughamning ushbu asari “ensign” unvoniga ega bo‘lgan asosiy qahromonning harbiy xizmatdagi kurashlar va shaxsiy kechinmalari haqida so‘zlaydi.

“The Flagbearer” by Katherine Petorson tomonidan yozilgan ushbu roman tarixiy voqea kontekstida bayroq olib yuruvchining rahbarlik va ramziy ahamiyatini o‘rganadi.

“The Red Badge of Courage”⁴ by Stiven Kreyning eng mashhur romonlaridan biri bo‘lib, Amerikaning fuqarolar urushiga asoslanadi. Asarda “red badge” (qizil belgi) - bu yaralanganlikni yoki jangda qahromonlikni bildiruvchi belgi sifatida ishlatiladi. Bu asardagi bosh qahramon yosh askar Genri Fleming bu “qizil belgi”ni olishni orzu qiladi, chunki u o‘zini haqiqiy jangchi sifatida tasavvur qilishni xohlaydi. Roman (1861-1865) yillarda Amerikadagi fuqarolar urushi davrida yuzaga kelgan.

“The Story of the British Flag”⁵ (1891) by A.M. Pound tomonidan yozilgan kitob bo‘lib, Britaniya bayrog‘ining tarixi uning kelib chiqishi va rivojlanishi haqida so‘z yuritiladi. Kitobda Britaniya bayrog‘ining shaklanishi, uni tashkil etuvchi qismlar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Asar bayroq haqidagi qiziqarli faktlar bilan diqqatga sazovor bo‘ladi.

Muhokama

Ingliz folklorida “bayroq” so‘zi ko‘pincha “banner” yoki “standard” deb ataladi. “Banner” odatda namoyish maqsadida ishlatiladigan bayroqni anglatadi, “Standard” esa ko‘pincha ma’lum bir guruhni, masalan harbiy birlik yoki qirroluk oilasini ifodalovchi bayroqni bildiradi. Yana ingliz adabiyotida bayroq olib yuruvchi shaxslarni ko‘pincha “standard-bearer” yoki “banner-bearer” deb atalgan. Qadimgi ingliz adabiyotida “bayroq” (Flag) so‘zining aniq ekvivalentligi bo‘lmastligi mumkin, lekin shunga o‘xshash tushunchalarni ifodalovchi bir qancha so‘zlar va sinonimlar mavjud. Masalan “Banner”, “Standerd”, “Hrycg”, “Flaesc” kabi so‘zlar bu so‘zlar aniq kontekstga qarab bir-birining o‘rnida ishlatili mumkin. Qadimgi ingliz va o‘rta asr adabiyotida bayroq yoki standartni olib yurish muhim va ramziy bir harakat bo‘lib, ko‘pincha jangda va marosimlarda yetakchilik bilan bo‘g‘liq bo‘lgan. Nafaqat ingliz adabiyotida balki o‘zbek adabiyotida ham bayroq haqida ko‘plab tariflar keltirilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, xalqning milliy timsoli va uning mustaqillik yo‘lidagi uzoq yo‘lini ifodalaydi. Bayroqning har bir elementi o‘ziga xos tarixiy va ma’naviy mazmunga ega bo‘lib, O‘zbekiston xalqining o‘zligini, birdamligini va milliy qadriyatlarini ifoda etadi. Bu bayroq ostida O‘zbekiston xalqi o‘ziga xos va o‘ziga mos kelajakka ishonch bilan qadam tashlamoqda. Shu bilan birga, davlat bayrog‘i mamlakatning chet elda tanilishiga, milliy g‘urur va xalqaro hurmatga sazovor bo‘lishiga xizmat qiladi.

⁴ [“The Red Badge of Courage” by Stiven Krey](#)

⁵ [“The Flagbearer” by Katherine Petorson](#)

REFERENCES

1. WWW:wikipediya
2. [O'zbekiston Davlat Bayrog'i: Tarix, Ma'no va Ramzlar - ifazo.uz](#)
3. [Buyuk Britaniya bayrog'i](#)
4. ["The Flagbearer" by Katherine Petorson](#)
5. ["Ensign" by W.Somerset Maugham](#)
6. ["The Red Badge of Courage" by Stiven Kreyn](#)
7. ["The Story of the British Flag" by A.M.Pound](#)